

## JAHON HAMJAMIYATIDA INKLYUZIV TA'LIMGA BO'LGAN E'TIBOR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8045187>

**Shaniyazova Dilafruz Sabirovna**

*Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi*

*metodikalarga o'rgatish milliy markazi*

*Pedagogika, psixologiya vata'lism menejmenti*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

*Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri.*

*E-mail:* [shaniyazova1983@gmail.com](mailto:shaniyazova1983@gmail.com)

*Tel:* (+99890-720-45-88)

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida jadal suratlar bilan inklyuziv ta'lism rivojlanmoqda. Chunki, aynan inklyuziv ta'limga rivojlanishi nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lism olishning keng imkoniyatlarini beradi. Nogironligi bo'lmagan bolalar va shaxslar nogironlik muammolarini tushunishadi. Nogironligi bor shaxslarning jamiyatdan ixotalanishi (izolyatsiyasi) kamayadi. Natijada nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida namoyon bo'ladi va jamiyat rivojlanishiga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lism rivojlanishiga bugungi kunda katta ahamiyat qaratilmoqda. Jhon tajribasi chuqur o'r ganilmoqda. Ekspertlarning fikriga ko'ra inklyuziv ta'lism rivojlanishida ijtimoiy sheriklikning o'rni beqiyosdir. Aynan shuning uchun ham inklyuziv ta'lism rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biri ijtimoiy sheriklik hisoblanadi. Hozirgi kunda inklyuziv ta'limga doir olimlar tomonidan hilma-xil ta'riflar beriladi. Inklyuziv so'zi (lotin tilidan olingan bo'lib, "jalb qilish" ma'nosida bildiradi).

Inklyuziv ta'lism hamma uchun ta'lism jarayonlarini ochiqligi ma'nosini bildiradi. Shuningdek, inklyuziv ta'lism barcha turdag'i bolalarga ta'lism olish imkoniyatini beradi. Inklyuziv ta'lism jarayonida nogironligi bor bolalar ta'lism jarayonlariga to'liq jalb qilinadi. Bu o'z navbatida inklyuziv matabning sharoitlari imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham moslashish kerakligini bildiradi. Lekin, ko'p holatlarda integratsiya va inklyuziya iboralari adashtiriladi. Inklyuziyaning farqi shundaki, unda nogironligi bo'lgan bolalar ta'lism jarayonlariga to'liq jalb etiladi. Inlyuziyaning asosiy maqsadi shundaki, istiqbolda har bir matab turli xil bolalarni qabul qilishga tayyorligini ta'minlashdir. Bu esa

o'z navbatida maktabdagi ma'muriyat, o'qituvchilar, ota-onalarni nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan dunyoqarashi o'zgarishini ta'lub qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 70 yillaridan boshlab inklyuziv ta'limni rivojlantirishga doir turli xil me'yoriy huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayoni boshlangan. Bu borada nogironlarni jamiyatga jalb qilish uchun AQSHva Yevropa mamlakatlarida asosan 3 ta yondashuv keng tarqalgan:

1. Meynstriming
2. Integratsiya
3. Inklyuziv

Meynstrimingga ko'ra, nogironligi bo'lgan o'quvchilar nogironligi bo'lman o'quvchilar bilan turli xil tadbirlarda, bayramlarda uchrashishadi. Shu asosida ular bir-birini xususiyatlarini, talablarini bilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Integratsion yondashuvga ko'ra, nogironligi bo'lgan bolalar umumta'lim mакtablariga jalb qilinadi. Lekin, maktablardagi ta'lim tizimi va sharoitlar o'zgartirilmaydi.

Inklyuziv yondashuvga ko'ra, nafaqat faqat nogironligi bor bolalar jalb qilinadi, balki ularni jalb qiladigan maktablar ham ularning talablariga qarab moslashtiriladi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, inklyuziv ta'limni rivojlantirish bu uzoq muddatli strategiya hisoblanadi. Mazkur strategiyani ishlab chiqishda va amalga oshirishda albatta tizimli yondashuvni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'limning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Nogironligi bo'lgan bolalar mazkur maktablarda o'z nogironligini sezishlari kerak emas. Nogironligi bo'lgan bolalarning maktabdagi bolalar soni tabiiy holatdagi bolalar populyatsiyasi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bolalar aralash guruhlarda o'qishi, bolalar o'zi yoshiga to'g'ri keladigan sinflarda ta'lim olishi, o'qitishning nomarkazlashtirilgan modelining mavjudligi.

#### *Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:*

1. Ta'lim tizimining vorisiyligi;
2. Ijtimoiy sherikliklik tamoyili;
3. Ta'limning to'siqsiz muhiti yaratilishilishida komplekslik tamoyili;
4. O'qituvchilarning professional kompitentligi.

Muayyan maktabda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy printsiplar namoyon bo'lishi kerak:

1. Maktabning o'zgarishlarga tayyorligi.
2. Boshqaruv mobilligi.
3. Gumanistik qadriyatlarning mavjudligi.

4. Ta'lim jarayonlarining individuallashuvi.
5. Individual ta'lim jarayonlariga oid resurslarning mavjudligi.

O'z navbatida inklyuziv ta'limni rivojlanish jarayonida xalqaro huquqiy hujjalarning o'rni beqiyosdir. Chunki aynan xalqaro huquq me'yorlari xalqaro hamjamiyat uchun inklyuziv ta'lim rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limni rivojlanishida xalqaro huquqning taraqqiyot jarayonlari yarim asrdan ko'proq tarixga ega. Bu boradagi eng muhim xalqaro hujjalardan biri bu 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasidir. Mazkur hujjat inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan boshqa xalqaro huquqiy hujjalarni rivojlanishiga olib keldi.

Mazkur deklaratsiyada qayd etilishicha: "Har bir inson tengdir". Aynan shuning uchun har bir inson bepul boshlang'ich ta'lim huquqiga egadir. SHuningdek, har bir bolani ta'lim olish teng huquqlari mavjudligi 1959 yilda qabul qilingan bola huquqlari deklaratsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Mazkur deklaratsiyada qayd etilishicha, har bir bola jamiyatning

to'laqon a'zosi bo'lishi uchun, shuningdek, rivojlanishi uchun ta'lim olish huquqiga egadir.

Yana bir muhim xalqaro hujjalardan biri, 1960 yilda qabul qilingan "Ta'lim olishda kamsitishga qarshi kurashish konventsiyasi"dir. Mazkur konventsiyada ta'lim olish jarayonida kamsitilishning har bir shakli taqiqlangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1969 yilda qabul qilingan "Ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanish deklaratsiyasi"da aqliy va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan insonlarning mehnat qobiliyatini tiklash haqida aytilgan. Ularning mehnat qobiliyatini tiklash tadbirlari quyidagilardan iborat bo'lish kerak: texnik vositalar va tibbiy muolajalar bilan ta'minlash, ularga ta'lim berish, ish bilan ta'minlash jarayonidan muayyan imtiyozlar berish, shuningdek, yordamning boshqa turlarini taqdim etish ko'zda tutilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1971 yilda qabul qilingan "Aqli zaif insonlar huquqlari to'g'risida"gi deklaratsiyada nogironligi bor shaxslar uchun ta'lim olish huquqi belgilab qo'yilgan.

Nogironligi bor shaxslarning ta'lim olish huquqini belgilab qo'ygan xalqaro hujjalardan biri bu "Nogironlar huquqlari deklaratsiyasi"dir. Mazkur xalqaro hujjat 1975 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 3447-sonli rezolyutsiyasi asosida qabul qilingan. SHuningdek, mazkur hujjalilar qatorida Dakar rejasи (2000 yil) ham muhim hujjalardan biridir, ushbu hujjat nogironligi bor shaxslarga teng imkoniyatlarni yaratish borasidagi standart qoidalardan biri hisoblanadi. Mazkur xalqaro hujjat 1993 yilda qabul qilingan.

Ushbu xalqaro hujjatning 6-qoidasida nogironligi bor shaxslaring ta'lim olishi umummiliy ta'lim tizimi asosida olib borilishi kerakligi qayd etilgan.

Shuningdek nogironligi bor shaxslar umumta'lim mакtablarda ta'lim olish huquqlari mavjudligi ham mazkur xalqaro hujjatda o'z aksini topgan. Lekin kommunikativ muammolarga duch keladigan nogirongligi bor shaxslar uchun maxsus ta'lim maskanlari shakllanishi mavjud bo'lishi mumkinligi ham ushbu hujjatda qayd etilgan. 1994 yilda o'tkazilgan ta'limga bag'ishlangan xalqaro konferentsiyada Salamank deklaratsiyasi qabul qilingan. Mazkur deklaratsiyada hukumatlar inklyuziv ta'limni rivojlantirish kerakligi aytilgan. Davlatlar bu borada loyihalarni ishlab chiqishi lozimligi, inklyuziv ta'limni rivojlantirish rejalarini tuzishligi, nogironligi bor bolalarning ota-onalarini ta'lim jarayonida ishtirok etishini, shuningdek, o'qituvchilarni taylorlash dasturi ishlab chiqilishi qayd etilgan.

Ma'lumki, oxirgi yillarda mamlakatimizda nogironligi bor shaxslarning turmush sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 1 dekabrda qabul qilingan 5770-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni nogironligi bor shaxslarga nisbatan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatining burulish pallasi sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan hozirgi kundagi muhim hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash" farmoni hisoblanadi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida mazkur qarorda quyidagilarga e'tibor qaratilgan: imkoniyati cheklangan bolalar o'qiydigan binolarga doir talablarni ishlab chiqilishi, imkoniyati cheklangan bolalar tahsil olayotgan mакtablarni kerakli adabiyotlar va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash, imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim olish uchun inklyuziv ta'lim tizimini yaratish, imkoniyati cheklangan bolalar o'qiyotgan mакtablarni maxsus vositalar, ko'targich (pandus)lar va xokazolar bilan ta'minlash, shuningdek, bu borada faoliyat olib boruvchi kadrlar (pedagog-defektolog, imkoniyati cheklangan bolalarga psixologik va pedagogik ko'mak beradigan mutaxassislar) bilan ta'minlash, jamoatchilik orasida imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim olish huquqlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish.

Fikrimizcha, mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun quyidagi mexanizmlarga e'tibor qaratish lozim:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda inklyuziv ta'limga oid modda kiritish lozim. Ushbu moddada imkoniyati

cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim olish huquqlari aks ettirilishi, ular ta'lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqarilishi kerak. Ma'lumki, O'zbekistonda 1995 yildan beri xalqaro donorlar ko'magida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan hilma-xil loyihalar amalga oshirildi. Ularning aksariyati trening-seminarlarni o'tkazish bilan cheklandi. Inklyuziv ta'limning rivojlanish vorisiylik qadami kuzatilmadi. Mazkur vorisiylikni ta'minlash uchun, shuningdek, bu boradagi ishlarning samaradorligini aniqlash uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishga doir davlat strategiyasi zarur, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, inklyuziv ta'limni joriy qilayotgan maktablarda to'siqsiz muhitni shakllantirish dasturi va nizomi ishlab chiqilishi zarur. Ushbu nizomda inklyuziv ta'lim tuzilmasining "moddiy-texnik ta'minoti, metodik ta'minot va shuningdek kommunikativ jarayonlar" aks ettirilishi lozim.

To'rtinchidan, "yordamchi-pedagoglar"ni taylorlash tizimini yo'lga qo'yish inklyuziv ta'limni rivojlanishida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mutaxassislar tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, surdopedagogika borasida katta bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

Beshinchidan, O'zbekistonda personal yordamchi tushunchasi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirilishi lozim. Istiqbolda personal yordamchi nogironligi bor shaxslarga yordam berishi mumkin bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan mexanizmlar inklyuziv ta'limni rivojlantirishda hamma jarayonlarni aks ettirmaydi, lekin, fikrimizcha, yuqorida keltirilgan mexanizmlarni joriy etilishi mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarga jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida integratsiyalashuviga yordam beradi.

Shuningdek, ijtimoiy sheriklik mazkur jarayonda maktablar va nogironligi bor shaxslarning manfaatlarini himoya qiladigan jamoat tashkilotlari o'rtaida ham muhim hisoblanadi. Aynan nogironligi bor shaxslarning manfaatlarini himoya qiladigan tashkilotlar muayyan maktabda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarga nogironligi bor bolalar bilan kommunikatsiya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishlari mumkin. Nogironligi bor bolalarning ota-onalari mifik va nogironligi bo'lmagan bolalar ota-onalari o'rtafigi ijtimoiy sheriklik bu borada ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Bu borada 2022-yil 3-26 oktyabr kunlari Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi JICAning "Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim amaliyotini mustahkamlash" nomli loyihasi doirasida "Inklyuziv ta'lim tajribasini rivojlantirish" mavzusida o'quv-trening mashg'ulotlari o'tkazildi.

Bundan ko'zlangan maqsad O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalg qilish, ularni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish, ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasidagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan Yaponiya - O'zbekiston o'rtaida tajriba almashish va tavsiyalarni qabul qilishdan iborat.

Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy masalalari o'ndan ortiq yo'nalishlarda tashkil etildi. O'quv-trening ishtirokchilari bilan Yaponiya misolida O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish istiqbollari, muammolar va ularning yechimlari bo'yicha metodik hamda amaliy masalalarni atroflicha muhokama qilindi.

O'quv-trening ishtirokchilarining hulosalari asosida ular tomonidan ishlab chiqilgan yakuniy tavsiyalar respublikamizdag'i inklyuziv ta'lim yo'nalishini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirish yo'lidagi alohida ahamiyatga ega bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Nogironligi bo'lмаган болаларни ога-оналари ногоиронлиги бо'лган болаларни ога-оналарига инклюзив та'лимни амалга оширишда ўрдам берисхлари зарур. Мазкур жароян албатта ижтимоий шерикликни о'зига хос модельни шакланышини тақозо qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishi kerakki, ijtimoiy sheriklik jarayonlari mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlanishiga ўрдам beradi. Ijtimoiy

sheriklik jarayonlarining rivojlanishi istiqbolda inklyuziv ta'limgizi barqaror va tizimli rivojlanishiga imkon yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabr "Ta'limgizi to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli yangi tahrir Qonuni, 20-moddasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabr "Alovida ta'limgizi ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limgiz-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019 yil 29 aprel. PF-5712-son.
4. Muminov A., Nishanbaeva E., Abduxalilov A. Ijtimoiy sheriklik. Uslubiy qo'llanma. Universitet nashriyoti. - T.:2018 yil. - B.17.
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 39-son, 488-modda.
6. Tabol'skaya O.A., Yakovleva I.V. Tyutorstvo v usloviyakh razvitiya inklyuzivnogo obrazovaniya. - Moskva-Berlin, 2019. - S. 10.
7. Tabol'skaya O.A., Yakovleva I.V. Tyutorstvo v usloviyakh razvitiya inklyuzivnogo obrazovaniya. - Moskva-Berlin, 2019. - S. 11.
8. Tabol'skaya O.A., Yakovleva I.V. Tyutorstvo v usloviyakh razvitiya inklyuzivnogo obrazovaniya. - Moskva-Berlin, 2019. - S. 21.